



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

AUTIZM SPEKTRI BUZILGAN BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANGANLIK DARAJASINI TEKSHIRISH

Alimova Pokizaxon Qayumjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, magistrant

Otabek Bozorov

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsent, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash va baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida 4–5 yoshdagi autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalarda verbal va nonverbal kommunikativ vositalar, asosiy kommunikatsiya vazifalari hamda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar eksperimental usullar orqali o'rganildi. Eksperiment uch bosqich – tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlarda tashkil etilib, bolalarning muloqotga kirishish, suhbatni davom ettirish, ijtimoiy javob reaksiyalari, hissiyotlarni ifodalash va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari autizm spektri buzilgan bolalarning aksariyatida kommunikativ ko'nikmalar past darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Shuningdek, ayrim bolalarda muloqot jarayonida exolaliya, ko'z bilan aloqa qilishdagi qiyinchiliklar, hissiy reaksiyalarning sustligi hamda ijtimoiy o'zaro ta'sirning cheklanganligi kuzatildi. Olingan natijalar autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus korreksion-pedagogik metodlar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, kommunikatsiya, verbal, nonverbal, ijtimoiylashuv, xulq-atvor, sharhlash, axborot berish, hissiy holat.

ОЦЕНКА УРОВНЯ СФОРМИРОВАННОСТИ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Алимова Покизахон Каюмжон кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрант 2 курса

Отабек Бозоров

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент, PhD

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы определения и оценки уровня развития коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра. В ходе исследования с использованием экспериментальных методов изучались вербальные и невербальные коммуникативные инструменты, основные коммуникативные задачи и социально-эмоциональные навыки у детей с расстройствами аутистического спектра в возрасте 4–5 лет. Эксперимент был организован в три этапа – подготовительный, основной и заключительный, и анализировались коммуникативные навыки детей, продолжение коммуникации, реакции социального взаимодействия, выражение эмоций и социальное поведение. Результаты исследования показали, что у большинства детей с расстройствами аутистического спектра наблюдался низкий уровень коммуникативных навыков. Также у некоторых детей отмечались эхолалия, трудности со зрительным контактом, слабые эмоциональные реакции и ограниченное социальное взаимодействие во время общения. Полученные результаты указывают на необходимость специальных коррекционно-

педагогических методов и обучения, основанных на индивидуальном подходе, для развития коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройство аутистического спектра, коммуникация, вербальная, невербальная, социализация, поведение, интерпретация, предоставление информации, эмоциональное состояние.

ASSESSMENT OF THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE SKILLS IN CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Alimova Pokizaxon Qayumjon qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, 2nd-year Master's student

Otabek Bozorov

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Associate Professor, PhD

Abstract

This article discusses the issues of determining and assessing the level of development of communicative skills in children with autism spectrum disorders. In the course of the study, verbal and nonverbal communicative tools, basic communication tasks, and socio-emotional skills were studied in children with autism spectrum disorders aged 4–5 years using experimental methods. The experiment was organized into three stages - preparatory, main, and final stages, and the children's communication skills, communication continuation, social response reactions, expression of emotions, and social behavior were analyzed. The results of the study showed that the majority of children with autism spectrum disorders had low levels of communicative skills. Also, some children had echolalia, difficulties in eye contact, weak emotional reactions, and limited social interaction during communication. The results obtained indicate the need for special correctional and pedagogical methods and training based on an individual approach to develop communicative skills in children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorder, communication, verbal, nonverbal, socialization, behavior, interpretation, information provision, emotional state.

Hozirda bolalar orasida xulq-atvor va muloqot sohalaridagi kamchiliklar bilan namoyon bo'ladigan autizm spektri buzilishlari (ruhiy buzilish holatlari) ko'payib bormoqda. CDC (Centers for Disease Control and Prevention) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining taxminan 1% autizm spektrining buzilishiga ega bo'lib ular umumiy hisobda 75 000 000 dan ortiq odamni tashkil etadi [8]. Jahon sog'liqni saqlash ma'lumotlariga ko'ra autizm taxminan 100 ta boladan 1 tasida uchraydi [8]. Autizm spektri buzilgan bolalar bilan ishlashning dolzarbligi ham aynan jamiyatning ularning ijtimoiylashuvi va hayot sifatini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Autizm spektri buzilgan bolalar orasida kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishida turli darajadagi cheklovlar kuzatiladi. Bu esa ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish, o'z fikrini ifodalash va ijtimoiy muhitga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Autizm spektri buzilishlari – bu anomal xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan keng doiradagi buzilishlar bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va muloqotdagi o'zgarishlar hamda xulq-atvor va faollikning stereotipik namunalari bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar tahlili

L.Kanner[1] muloqot qiyinchiliklarini bolalar autizmini tashxislashning asosiy mezonini sifatida ko'rib chiqqan. Biz ham aynan shu nuqtai nazarga qo'shilamiz. Muallif o'z izlanishlarida Autizm spektri buzilgan bolalarda nutqning kech rivojlanishi, mutizm, exolaliyalar, olmoshlardan foydalanishdagi qiyinchiliklar kabi autizmga xos nutqiy xususiyatlarni ta'kidlagan. Olim o'z kuzatishlarida autizmli bolada kechadigan kommunikativ o'zgarishlar tug'ma xarakterga ega

ekanligini qayd etib o'tgan.

K.Gilbert[2], T.Piters[7], S.A. Morozova[4], O.S. Nikolskaya[6] va K.S. Lebedinskaya[3] olimlarning tadqiqotlari natijalariga asoslanib, chaqaloqlik davridagi quyidagi muloqot buzilishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ko'z bilan aloqa o'rnatishning buzilishi: bola odamning ko'zlariga qaramaydi, bola boshqa odamning nigohidan faol tarzda qochadi;
- jonlanish kompleksining kechikishi va buzilishi: yorug'lik, tovushlar, ona yoki boshqa yaqin kishining ovozigacha yoki shaxsiga nisbatan javob reaksiyasini yo'qligi;
- ijtimoiy tabassumning yo'qligi yoki ko'p holatlarda birinchi tabassum ona yoki boshqa yaqin kishiga nisbatan emas, balki atrofdagi predmetlarga (tovushga, ko'rish qo'zg'atuvchilariga) javoban paydo bo'ladi;
- yaqin kishilarga nisbatan hissiy munosabatlarning yetarli darajada ifodalanmaganligi;
- gugulash va guvranish davrining yo'qligi, ba'zi hollarda bir xil ohangda bo'lishi yoki faqat muloqotga yo'naltirilmagan maqsadlarda namoyon bo'lishi mumkin;
- atrofdagi odamlarga befarq yoki salbiy munosabatda bo'lish, o'zaro aloqaning sustligi, muloqotga befarq yoki salbiy munosabat: bola boshqalar tominidan qo'lga olinishni xohlamaydi yoki bunga faol qarshilik ko'rsatadi, ba'zan esa bunga umuman qarshilik ko'rsatmaydi;
- o'z ismiga va boshqa odamning nutqiga javob reaksiyasini yo'qligi;
- ko'rsatish ishorasining shakllanmaganligi.

S.S. Morozova [5] autizm spektri buzilgan bolalarning taxminan 25-30% gapira boshlaydi, ammo keyinchalik nutq ko'nikmalarini yo'qotadi. Ko'pincha bu holat bolaning 15-24 oylikgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi, bunday regressiya to'satdan yoki asta-sekin namoyon bo'lishi mumkinligi haqida alohida to'xtalib o'tadi. Muallif ba'zi autizimli bolalar tovushlarni yaxshi talaffuz qilsalar-da, juda past yoki juda baland ovozda gapirishini ta'kidlab o'tgan.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida autizm spektri buzilgan 4–5 yoshdagi bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot Toshkent shahridagi “Центр Аутизма в детей в Ташкенте” bazasida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 20 nafar bola ishtirok etdi. Eksperiment davomida bolalarning kommunikativ faoliyati verbal va noverbal kommunikativ vositalar, asosiy kommunikatsiya vazifalari hamda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar asosida baholandi. Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlar.

Tayyorgarlik bosqichida bolalar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularning emotsional holatini kuzatish hamda ota-onalar va pedagoglar bilan suhbat o'tkazish orqali bolaning rivojlanish tarixi va kommunikativ xususiyatlari haqida ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda diagnostik metodikalar va o'yinli topshiriqlar tanlab olindi. Asosiy bosqichda bolalarning kommunikativ ko'nikmalari maxsus tuzilgan topshiriqlar, kuzatish va suhbat metodlari yordamida baholandi.

Bu jarayonda muloqotni boshlash va davom ettirish qobiliyati, ko'z bilan aloqa qilish, ijtimoiy javob reaksiyalari, axborot berish va so'rash ko'nikmalari, shuningdek, hissiyotlarni ifodalash hamda ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari tahlil qilindi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar umumlashtirilib, matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar asosida bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi aniqlanib, natijalar diagramma va grafik ko'rinishida ifodalandi.

Natijalar

Tadqiqot jarayonida autizm spektri buzilgan 4–5 yoshdagi 20 nafar bolaning kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi eksperimental ravishda o'rganildi. Tekshiruv davomida bolalarning kommunikativ faoliyati verbal va noverbal kommunikativ vositalar, asosiy kommunikatsiya vazifalari hamda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar bo'yicha

baholandi. Har bir yoʻnalish boʻyicha bolalarning muloqotga kirishish darajasi, ijtimoiy reaksiyalari, hissiy ifodalari hamda atrofdagilar bilan oʻzaro munosabatlari kuzatilib, olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Eksperiment natijalari shuni koʻrsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning aksariyat qismida kommunikativ koʻnikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Xususan, tekshirilgan 20 nafar bolaning 16 nafari, yaʼni 80 foizi kommunikativ koʻnikmalar shakllanishining past darajasini namoyon etdi. Ushbu guruhga kirgan bolalarda muloqotga kirishishda jiddiy qiyinchiliklar kuzatildi. Ular suhbatni boshlashga tashabbus koʻrsatmasligi, savollarga javob bermasligi yoki javob reaksiyasining juda sust boʻlishi bilan ajralib turdi. Shuningdek, koʻz bilan aloqa oʻrnatishning deyarli kuzatilmasligi, murojaatga javoban tana harakati yoki yuz ifodalarining oʻzgarishi sezilmasligi ham ushbu guruh bolalariga xos xususiyatlardan biri boʻldi. Ayrim holatlarda bolalar bir necha bor murojaat qilinganidan keyin ham javob reaksiyasini namoyon etmadi.

Past darajadagi kommunikativ koʻnikmalarga ega boʻlgan bolalarda verbal nutq imkoniyatlari ham ancha cheklanganligi kuzatildi. Ular koʻpincha muloqot jarayonida soʻzlardan foydalanmasdan, oʻz ehtiyojlarini yigʻi yoki harakatlar orqali ifodalashga harakat qildi. Kerakli buyumni soʻrash oʻrniga mustaqil ravishda olib ketish yoki norozilikni yigʻi orqali bildirish holatlari koʻp uchradi. Bundan tashqari, ushbu guruh bolalarida hissiy reaksiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi ham qayd etildi. Ular quvonch, gʻamginlik, qoʻrquv yoki hayrat kabi emotsiyalarni aniq ifodalay olmadi hamda boshqa odamlarning hissiy holatini tushunishda qiyinchiliklarga duch keldi.


Tadqiqot natijalariga koʻra, tekshirilgan bolalarning 4 nafari, yaʼni 20 foizi kommunikativ koʻnikmalar shakllanishining oʻrta darajasini namoyon etdi. Ushbu guruh bolalarida muloqotga kirishish qobiliyati qisman shakllangan boʻlsa-da, u barqaror emasligi bilan tavsiflandi. Bolalar asosan zarurat tugʻilganda muloqotga kirishib, mustaqil tashabbus koʻrsatish holatlari kam kuzatildi. Ayrim hollarda ular savollarga qisqa va sodda javoblar berishga harakat qilgan boʻlsa-da, nutq mazmuni aniq va toʻliq ifodalanmaganligi bilan ajralib turdi.

Baʼzi bolalarda exolaliya, yaʼni berilgan savolni takrorlash orqali javob berish holatlari ham kuzatildi. Noverbal kommunikatsiya jarayonida ham ayrim qiyinchiliklar aniqlandi. Masalan, koʻz bilan aloqa qilish qisqa va beqaror boʻlib, koʻpincha tasodifiy qarashlar shaklida namoyon boʻldi. Shuningdek, bolaning ismiga murojaat qilinganda boshini sekin qimirlatish yoki tana harakatlari orqali javob reaksiyasi kuzatildi, biroq bu harakatlar yetarli darajada ifodali emas edi.

Yuz ifodalari ham zaif boʻlib, emotsional reaksiyalar kam hollarda namoyon boʻldi. Sharhlash va axborot berish koʻnikmalarini baholash jarayonida oʻrta darajadagi bolalar atrofdagi predmetlar yoki voqealar haqida qisqa va sodda maʼlumot bera olishi aniqlandi. Biroq ularning nutqi mantiqiy ketma-ketlik jihatidan toʻliq shakllanmagan boʻlib, fikrlar oʻzaro yetarli darajada bogʻlanmaganligi kuzatildi. Leksik zahira ham nisbatan cheklangan boʻlib, soʻz tanlash imkoniyatlari kamligi aniqlandi. Ayrim topshiriqlarni bajarishda bolalar pedagog yoki mutaxassisning qisman yordami bilan mustaqil harakat qila oldi. Tadqiqot natijalariga koʻra, kommunikativ koʻnikmalari yuqori darajada shakllangan bolalar aniqlanmadi. Bu holat autizm spektri buzilishiga ega bolalarda kommunikativ faoliyatning rivojlanishi sezilarli darajada cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, olingan natijalar autizm spektri buzilgan bolalarda verbal va noverbal kommunikatsiya, ijtimoiy javob reaksiyasi hamda hissiy ifoda koʻnikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligini koʻrsatdi.

Autizm spektri buzilgan bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini tekshirish natijalari

Past daraja	16 nafar
	80 %
O'rta daraja	4 nafar
	20 %
Yuqori darja	0
	0



Muhokama

Tekshirish natijasi asosida autizm spektri buzilgan bolalarni III guruhga bo'ldik. I guruhga kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi past bo'lgan 16 nafar (80%) bolalar kiritildi. Bu toifa bolalarda suhbatga umuman kirishmaslik, savollarga javob bermaslik holatlari hamda muloqotni davom ettirishdagi chuqur qiyinchiliklar kuzatildi. Ko'z bilan kommunikatsiya qila olmadir, so'rovga tana bilan burilish holatlari bo'lmadi va yuz ifodasida hech qanday o'zgarish kuzatilmadi. 5 chaqiriqdan keyin ham javob reaksiyasini namoyon qilmadi. Umuman so'rov va murojaat holati yo'q, kerakli narsani o'zligisi olib ketdi yoki yig'ladilar. Norozilikni ifodalay olmadilar, faqat yig'ladilar. Rozilik bildirmadilar, savol javobsiz qoldi. Ma'lum o'yinchoq yoki rasm haqida ham fikr bildirmadilar. Bolalarda ma'lumotlar tushunarsiz, mantiqiy ketma-ketlik mazmunsiz, o'zaro bog'lanmagan, leksik darajasi juda cheklangan, nutqi rivojlanmagan, topshiriqlarni mustaqil bajara olmadilar. Hissiyotlarni tanimadilar, emotsiyalarni tushunmadilar, namoyon qilgan emotsiyalari holatga umuman mos emas.

II guruhga kommunikativ ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi o'rta darajada bo'lgan 4 nafar (20%) bolalar kiritildi. Bu toifa bolalarda faqat zaruratda aloqa qilish, kamdan-kam tashabbus ko'rsatish, berilgan savollarni qayta takrorlash (exolaliya) holatlari aniqlandi. Bundan tashqari ular savollarga qisqa, sodda javob berib, noaniq ma'no bilan yig'i yoki g'azab holatlarini namoyon qildi. Ko'z bilan kommunikatsiya qilishi qisqa va befarq, ba'zan tasodifiy qarashlar kuzatildi. Berilgan so'rovga faqat boshini ozgina qimirlatdi, tana noaniq burildi, yuz ifodasi juda zaif, 4-5 chaqiriqda sekin javob berdi. Bolalarda axborot juda qisqa, mavzu bo'yicha kam fikr bildirdilar. Mantiqiy ketma-ketlik qisman izchil, mantiqan kam bog'langan, leksikasi kam, so'z tanlovi oz. Topshiriqlarni qisman yordam bilan mustaqil bajardilar. Vaziyatlarda javob beradi,

ammo harakatlar noo‘rin yoki imitatsion; rag‘bat yoki takror so‘rovdan keyingina reaksiyasi paydo bo‘ladi. Kommunikativ ko‘nikmalari yuqori darajada bo‘lgan bolalar aniqlanmadi.

Ekspperimental tadqiqot natijalari autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanish darajasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning aksariyat qismida kommunikativ ko‘nikmalar past va o‘rta darajada shakllanganligi aniqlandi. Bu holat autizm spektri buzilishlariga xos bo‘lgan muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir jarayonlaridagi qiyinchiliklarning mavjudligini tasdiqlaydi. Ayrim bolalarda ayrim diagnostik ko‘rsatkichlarning nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lishi esa ularning individual rivojlanish xususiyatlari hamda kompensator imkoniyatlari bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida turli diagnostik topshiriqlar va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda verbal kommunikativ ko‘nikmalar, ya‘ni muloqotni boshlash, davom ettirish va suhbatga faol kirishish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, noverbal kommunikativ ko‘nikmalarda ham sezilarli qiyinchiliklar kuzatildi. Xususan, bola ismiga murojaat qilinganda noverbal reaksiyaning sustligi, ko‘z bilan aloqa o‘rnatishdagi qiyinchiliklar hamda yuz ifodasi va tana harakatlari orqali javob reaksiyasining yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi qayd etildi. Asosiy kommunikatsiya vazifalarini bajarish jarayonida ham qator muammolar aniqlandi. Bolalarda sharhlash va axborot berish ko‘nikmalarining cheklanganligi, fikrlarni aniq va mantiqiy ifodalashda qiyinchiliklar mavjudligi kuzatildi. Ko‘pincha bolalar berilgan vaziyat yoki obyekt haqida juda qisqa va mavzu bilan yetarli darajada bog‘lanmagan fikrlar bildirishi aniqlandi. To‘liq, aniq va mazmunan boy sharhlash holatlari deyarli kuzatilmadi. Bundan tashqari, ijtimoiy javob reaksiyasining sustligi, savollarga javob berishda passivlik ham tadqiqot natijalarida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida bolalarning ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalari ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, autizm spektri buzilgan bolalarda hissiyotlarni ifodalash va ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari ham past darajada shakllangan. Xususan, bolalar ijtimoiy o‘yinlarni takrorlash, tengdoshlari bilan birgalikda o‘ynashni taklif qilish, xushmuomalalik ko‘rsatish, o‘z o‘yinchoqlari yoki boshqa buyumlarini boshqalar bilan baham ko‘rish kabi ijtimoiy faoliyatlarda yetarli darajada ishtirok eta olmadi. Shuningdek, sevgi izhor etish, boshqalarga yordam berish yoki xafa bo‘lgan insonni yupatish kabi ijtimoiy-emotsional reaksiyalar ham juda kam hollarda kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kanner L. Autistic disturbances of affective contact // Nervous child. - 1943. -Vol.2.-pp.
2. Гилберт К., Питерс Т. Аутизм: Медицинское и педагогическое воздействие: Книга для педагогов-дефектологов / Пер. с англ. О.В. Деряевой; под науч. ред. Л.М. Шипицыной; Д.Н. Исаева. - М.: Владос, 2002.-144 с.
3. Лебединская К.С., Никольская О.С. Диагностика раннего детского аутизма. - М.: Просвещение, 1991. - С. 21 - 25.
4. Морозова С.А. Детский аутизм и основы его коррекции (материалы к спецкурсу). - М.: СигналЪ, 2002. - 108 с.
5. Морозова С.С. Развитие речи у аутичных детей в рамках поведенческой терапии. Аутизм: Методические рекомендации по коррекционной работе./ Под ред. С.С. Морозова. - М., 2002. - С. 120-151.
6. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М. М., Костин I.A., Веденина М.Ю., Аршатский А.В., Аршатская О.С. Дети и подростки с аутизмом. Психологическое сопровождение. Теревинф Москва. 2005. 106-111
7. Питерс Т. От теоретического понимания к педагогическому воздействию: Книга для педагогов-дефектологов / Пер. с англ. М.М. Щербаковой; под науч. ред. Л.М. Шипицыной; Д.Н. Исаева. - М.: Владос, 2002. - 240 с.
8. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/6736/file/SitAnuz.pdf.pdf>